



XORAZM VILOYATIDA INNOVATSIYA



Innovatsiya - bu beozir talabidan kelib chiqqan holda jarayonlar va mahsulotlarning sifatli o'sish samaradorligini ta'minlash uchun joriy etilgan yangilikdir. Inson intellektual faoliyati, uning fantazyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorligining yakuniy natijasi hisoblanadi.

Innovatsiya o'z-o'zidan zamonaviy bilimlarni nafaqat egallash, balki ular negizida yangiliklar yaratishni taqozo etadi.

XXI asrni ko'proq axborot asri, deyishadi. Insoniyatning bugungi hayot tarzi esa innovatsion asrdan ham darak bermoqda. Shu bois, har bir mamlakat o'z taraqqiyoti poydevorini innovatsiya asosida mustahkamlashga harakat qilmoqda. O'zbekistonda ham bu masala davlatimizning doimiy e'tibor markazida.

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalariga innovatsiyalarni tatbiq etish, ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion loyihalardan keng foydalanish, rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirish innovatsion sohadagi ustuvor yo'nalishlardandir.



Foydalanish uchun kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yangilangan mahsulot (tovar, xizmat) yoki jarayon, sotuvlarning yangicha uslubi yoki ish amaliyotidagi, ish o'rinlarini tashkil etishdagi va tashqi aloqalarni o'rnatishdagi yangi tashkiliy uslub hisoblanadi.

Har qanday turdagi yangilik sifatida emas, balki mavjud tizimning samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil sifatida qarashimiz lozim.


Innovatsiyalarning ilmiy kashfiyotlar va ixtirolardan farqi: Ilm-fan - bu malum mablag'larni bilimlar va g'oyalarga aylantirish. Innovatsiya- bu bilim va g'oyalarni mablag'larga aylantirishdir.

Ixtiro-bu konsepsiyani yaratish demak. Innovatsiya- bu ixtironing amaliy ahamiyatini ajratib ko'rsatish va uni muvaffaqiyatli sotiladigan mahsulotga aylantirish.

O'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni, birlik

2019 - yilda Xorazm viloyatida o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan jami korxonalar va tashkilotlar soni 80 ta. Birinchi marta o'zlashtirgan 36 ta, oxirgi ikki yilda birinchi marta o'zlashtirilgan 27 ta, oxirgi uch yilda takomillashtirilgan 21 taga yetdi.

2018 - yilda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan jami korxonalar va tashkilotlar soni 54 ta. Birinchi marta o'zlashtirgan 23 ta, oxirgi ikki yilda birinchi marta o'zlashtirilgan 45 ta, oxirgi uch yilda takomillashtirilgan 16 ta bo'lgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni, birlik

	Jami	2019 - yilda birinchi marta o'zlashtirilgan	2017 - 2018 yillarda birinchi marta o'zlashtirilgan	2017 - 2019 yillarda takomillashtirilgan
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	74	34	21	19
Qishloq, o'rmon va balliq xo'jaligi	3	2	1	-
Qurilish	4	1	1	2
Ulgurji va chakana savdo	16	8	2	6
Tashish va saqlash	1	-	1	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	6	-	1
Axborot va aloqa	1	-	1	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	1	1	-	-
Professional, ilmiy texnik faoliyat	3	1	1	1
Boshqarish bo'yicha faoliyat	1	-	1	-
Ta'lim	3	1	1	1
Ishlab chiqarish sanoati	31	13	10	8
Boshqa turdagi xizmatlar	3	1	2	-

Hududlar kesimida o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi, mln so'm



2019 - yilda Xorazm viloyatida o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz) 667179,1 mln so'mni, birinchi marta o'zlashtirgan 64399,9 mln so'm, oxirgi ikki yilda birinchi marta o'zlashtirgan 56426,2 mln so'm, oxirgi uch yilda takomillashtirilgan 546353,1 mln so'mni tashkil qildi.

2018 - yilda esa o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz) 204772,0 mln so'mni, birinchi marta o'zlashtirgan 12813,7 mln so'm, oxirgi ikki yilda birinchi marta o'zlashtirgan 160293,4 mln so'm, oxirgi uch yilda takomillashtirilgan 31664,8 mln so'mni tashkil qilgan.

	Jami	2019 - yilda birinchi marta o'zlashtirilgan	2017 - 2018 yillarda birinchi marta o'zlashtirilgan	2017 - 2019 yillarda takomillashtirilgan
Urganch sh.	604364,6	54302,9	8198,7	541863,1
Xiva sh.	3279,8	3045,9	233,9	-
Gurlan	700,2	-	700,2	-
Qo'shko'pir	3487,4	2500,3	987,1	-
Urganch	3162,2	925,1	-	2237,1
Hazorasp	2127,2	472,1	1655,1	-
Xonqa	38600,7	577,7	36637,7	1385,3
Xiva	1566,5	72,1	646,8	847,6
Shovot	477,3	477,3	-	-
Yangiariq	8857,6	1490,9	7366,7	-
Yangibozor	555,6	535,6	-	20,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi, mln so'm

Viloyatimizda 2019 - yilda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 667179,1 mln so'm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning asosiy qismi ishlab chiqarish sanoati (544349,4 mln so'm), ulgurji va chakana savdo (55444,4 mln so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (37593,3 mln so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

	Jami	2019 - yilda birinchi marta o'zlashtirilgan	2017 - 2018 yillarda birinchi marta o'zlashtirilgan	2017 - 2019 yillarda takomillashtirgan
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	667179,1	64399,9	56426,2	546353,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	37593,3	1441,1	36152,2	-
Qurilish	4539,2	347,2	292,8	3899,2
Ulgurji va chakana savdo	55444,4	45148,4	1133,4	9162,6
Tashish va saqlash	16572,4	-	798,1	15774,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4060,5	3874,7	-	185,8
Axborot va aloqa	1231,6	-	1231,6	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	179,0	179,0	-	-
Professional, ilmiy texnik faoliyat	1262,8	52,1	175,2	1035,5
Boshqarish bo'yicha faoliyat	55,0	-	55,0	-
Ta'lim	1773,9	237,6	1452,4	83,9
Ishlab chiqarish sanoati	544349,4	13096,7	15040,9	516211,8
Boshqa turdagi xizmatlar	117,6	23,0	94,6	-

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2019 - yilda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 610257,5 mln so'm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlarning asosiy qismini ishlab chiqarish sanoati (539748,5 mln so'm), ulgurji va chakana savdo (55444,4 mln so'm), qurilish (4539,2 mln so'm) tashkil qildi.

Hududlar kesimida o'z kuchi bilan ishlab bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, xizmatlar hajmi, mln so'm

2019 - yilda Xorazm viloyatida o'z kuchi bilan ishlab bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, xizmatlar hajmi 455968,7 mln so'm, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 401578,5 mln so'mni tashkil qildi.

2018 - yilda o'z kuchi bilan ishlab bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, xizmatlar hajmi 205252,9 mln so'm, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 186288,1 mln so'mni tashkil qildi.

	Jami	2019 - yilda birinchi marta o'zlashtirilgan	2017 - 2018 yillarda birinchi marta o'zlashtirilgan	2017 - 2019 yillarda takomillashtirilgan
Urganch sh.	393685,8	54061,1	5800,8	333823,9
Xiva sh.	3279,8	3045,9	233,9	-
Gurlan	700,2	-	700,2	-
Qo'shko'pir	3487,4	2500,3	987,1	-
Urganch	3162,2	925,1	-	2237,1
Hazoraspi	2127,2	472,1	1655,1	-
Xonqa	38587,9	574,6	36628,0	1385,3
Xiva	1359,0	72,1	646,8	640,1
Shovot	477,3	477,3	-	-
Yangiariq	8546,3	1490,8	7055,4	-
Yangibozor	555,6	535,6	-	20,0

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'z kuchi bilan ishlab bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, xizmatlar hajmi, mln so'm

2019 - yilda viloyatimizda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'z kuchi bilan ishlab bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, xizmatlar hajmini asosiy qismi ishlab chiqarish sanoati 333382,0 mln so'm, ulgurji va chakana savdo 55211,2 mln so'm, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 37583,6 mln so'mni tashkil qildi.

2018 - yilda esa iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'z kuchi bilan ishlab bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, xizmatlar hajmini asosiy qismi ishlab chiqarish sanoati 171707,8 mln so'm, tashish va saqlash 15872,2 mln so'm, ulgurji va chakana savdo 11848,4 mln so'mni tashkil qilgan.

Innovatsion faoliyat turlari bo'yicha texnologik va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mln so'm

2019 - yilda Xorazm viloyatida jami innovatsiyalarga xarajatlar 87466,9 mln so'mni tashkil qildi. Shundan texnologik innovatsiyalarga 87424,7 mln so'm, tashkiliy innovatsiyalarga 42,2 mln so'm xarajat qilindi.

2018 - yilda Xorazm viloyatida jami innovatsiyalarga xarajatlar 1158,8 mln so'mni tashkil qildi. Shundan texnologik innovatsiyalarga 1158,8 mln so'm xarajat qilingan.



87424,7 Texnologik innovatsiya



42,2 Tashkiliy innovatsiya

Moliyalashtirish manbalari va hududlar bo'yicha texnologik va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mln so'm

2019 - yilda Xorazm viloyatida moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar o'tgan 2018 - yilga qaraganda 86308,1 mln so'mga oshib 87466,9 mln so'mga yetdi. Tashkilotni o'z mablag'lari 66364 mln so'mga oshib 67160,6 mln so'm, tijorat banklari tomonidan 2665,3 mln so'mga oshib 3015,3 mln so'mga yetdi.

	Jami xarajatlar	Tashkilotning o'z mablag'lari	Chet el investitsiyalari	Tijorat banklarining kreditlari	Byudjet mablag'lari	Boshqa mablag'lar
Urganch sh.	56292,7	55820,0	-	-	11,1	461,6
Xiva sh.	2005,9	2005,9	-	-		
Qo'shko'pir	11562,2	120,7	11341,4	100,1		
Urganch	2362,0	17,6	-	2344,4		
Hazorasp	69,7	69,7	-	-		
Xonqa	67,3	38,5	-	28,8		
Xiva	12000,0	7483,9	4516,1	-		
Shovot	1264,2	103,4	960,8	200,0		
Yangiariq	1490,9	1490,9	-	-		
Yangibozor	352,0	10,0	-	342,0		

JORIY QILINGAN INNOVATSIYALAR


2019 - yilda Xorazm viloyatida texnologik joriy qilingan innovatsiyalar 36 ta. Shundan o'z kuchi bilan joriy qilingan innovatsiyalar 33 ta, boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda 2 ta, boshqa tashkilotlar tomonidan 1 ta innovatsiyalar joriy qilindi. Tashkiliy innovatsiyalar 3 ta barchasi o'z kuchi bilan joriy qilingan.

	Jami	O'z kuchi bilan	Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda	Ulardan: ITI bilan hamkorlikda	OTM bilan hamkorlikda	Boshqa tashkilotlar tomonidan
Texnologik innovatsiyalar	36	33	2	1	1	1
Shu jumladan:						
mahsulotlar bo'yicha	21	18	2	1	1	1
jarayonlar bo'yicha	15	15	-	-	-	-
Tashkiliy innovatsiyalar	3	3	-	-	-	-

Hududlar kesimida joriy qilingan texnologik innovatsiyalar

2019 - yilda viloyatimizda texnologik innovatsiya joriy qilgan tashkilotlar soni 30 ta. Jami joriy qilingan texnologik innovatsiyalar 36 ta.


2018 - yilda texnologik innovatsiya joriy qilgan tashkilotlar soni 7 ta. Jami joriy qilingan texnologik innovatsiyalar 12 ta.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha joriy qilingan texnologik innovatsiyalar, birlik

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	Innovatsiya joriy qilgan tashkilotlar	Jami joriy qilingan innovatsiyalar	O'z kuchi bilan	Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda	Boshqa tashkilotlar tomonidan
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	30	36	33	2	1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	1	1		
Ulgurji va chakana savdo	6	9	8	1	
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	8	8		
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	1	1	1		
Professional, ilmiy texnik faoliyat	1	1	1		
Ta'lim	1	1	1		
Ishlab chiqarish sanoati	13	14	12	1	1
Boshqa turdagi xizmatlar	1	1	1		

Hududlar bo'yicha joriy qilingan tashkiliy innovatsiyalar, birlik



● Joriy qilingan innovatsiyalar

2019 - yilda Xorazm viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha joriy qilingan tashkiliy innovatsiyalar jami 3 ta. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1 ta, ulgurji va chakana savdoda 2 ta.

2018 - yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha joriy qilingan tashkiliy innovatsiyalar jami 2 ta. Ta'lim sohasida 2ta.